


DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 29-moddasiga ko'ra quyidagilardan **qaysilariga ma'muriy qamoqqa olish chorasi qo'llanilmaydi?** (01.06.2024-yil holatiga ko'ra)
- 1) III guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
 - 2) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga;
 - 3) uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga;
 - 4) IV guruh nogironligi bolgan shaxslarga.
- A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4
2. **K. ismli** fuqaro qo'shnisi **A. ismli** shaxsni telefonidagi shaxsiy rasmlarini va ma'lumotlarini uning ruxsatisiz telegram kanallarda masxaralab tarqatdi.
- Ushbu holatda **A. ismli** shaxsning qanday konstitutsiyaviy huquqi poymol etilgan?
- A) siyosiy B) ekologik C) iqtisodiy D) shaxsiy
3. "Inson ixtiro qilgan vayronkor qurollar orasida so'z eng xatarli va kuchli qurolligicha qolmoqda".
- Ushbu fikr kim tomonidan aytilgan?**
- A) Sitseron Mark Tulliy B) Paulo Koelyo
C) N.Viner D) Jan Jak Russo
4. O'zbekiston Respublikasi tomonidan **ratifikatsiya qilingan (qo'shilgan) xalqaro hujjatlar** to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. (01.06.2024-yil holatiga ko'ra)
- 1) "Xalqaro madaniy hamkorlik tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya";
 - 2) "Inson huquqlari to'g'risida"gi Amerika konvensiyasi;
 - 3) "Texnik va kasb ta'limi bo'yicha konvensiya";
 - 4) "Yevropa sotsial xartiyasi".
- A) 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
5. **Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.**
- O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari Kengashlari deputatlari saylovlari yoki referendum kunlari ovoz berish o'tkaziladigan binolarda soat ... ijro etiladi.
- A) 7.00 da B) 6.00 da C) 8.00 da
D) 9.00 da
6. **To'g'ri berilgan ma'lumotni aniqlang** (Fuqarolik kodeksining 8, 28, 29-moddalari, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra).
- A) ota-ona, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilingan voyaga yetmaganning majburiyatlari bo'yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo'yicha javobgar hisoblanadilar
- B) voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchini so'roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olganda 8 soatdan oshmasligi kerak
- C) olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni tuzishga haqli emas
- D) fuqarolik huquq va burchlari fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida vujudga keladi
7. "Hukumat – so'zlovchi qonun, qonun esa gung hukumatdir".
- Ushbu fikr kim tomonidan aytilgan?**
- A) Sitseron Mark Tulliy B) Paulo Koelyo
C) Shan Yan D) Monteskiyo

8. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, **Eyler-Venn diagrammasiga mos ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.**

Oliy Majlis palatalarining vakolatlari

Qonunchilik palatasi Senat



- a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
 b) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
 c) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
 d) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalarini rahbarlarining o'z faoliyati masalalari bo'yicha hisobotlarini eshitish;
 e) O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
 f) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taklif etilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisi lavozimiga nomzod yuzasidan maslahatlashuvlar o'tkazish.

- A) I-b, e; II-d, f; III-a, c
 B) I-a, d; II-c, f; III-b, e
 C) I-d, f; II-a, c; III-b, e
 D) I-d, f; II-b, e; III-a, c

9. Quyida berilganlardan qaysilari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **Fuqarolik jamiyati institutlari** bobiga oid?

- 1) jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi;
 2) O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.
 3) davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi;
 4) davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

- A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 2, 3

10. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 148-moddasi.

Ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning tagiga chizib ko'rsatilgan qismi **huquq normasining qaysi tarkibiy elementiga oid?**

- A) sanksiya B) dispozitsiya
 C) prolongatsiya D) gipoteza

11. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

(Jinoyat-protsessual kodeksining 76-moddasi, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)

- 1) jinoyat ishini taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya ushbu jinoyat ishini birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda, shuningdek ishni yuqori instansiya sudida taftish tartibida qayta ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas;
- 2) birinchi, apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudida ishni ko'rishda ishtirok etgan sudya o'z ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim bekor qilinganidan keyin o'sha ishni ko'rishda ishtirok eta oladi;
- 3) surishtiruvchining, tergovchining, shuningdek sud majlisi kotibining o'z protsessual majburiyatlarini bajarishi ularning shu ish bo'yicha tegishincha surishtiruvni, dastlabki tergovni yuritishda takroran ishtirok etishi, shuningdek sud majlisi bayonnomasini yuritishi uchun monelik qilmaydi;
- 4) jinoyat ishini birinchi instansiya sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok eta oladi.

A) 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 4

12. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Inson huquqlari bo'yicha Vakillik instituti (Ombudsman) 1995-yil Oliy Majlis huzurida tashkil etilgan bo'lib sudlovchi hisoblanmaydi;
- 2) ombudsman daxlsizlik huquqidan foydalanadi, lekin u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin;
- 3) ombudsman O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi;
- 4) ombudsman sudning vakolat doirasiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqish huquqiga ega.

A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

13. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

(Oila Kodeksining 26, 27, 31-moddalari, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)

- 1) er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir;
- 2) er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga haqli emas;
- 3) qimmatbaho buyumlar va zebu-ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilar), nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa, er va xotinning umumiy mulki hisoblanadi;
- 4) er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin.

A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 1, 3

- 14. Ma'lumki, Jinoyat Kodeksining 43-moddasida Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi asosiy jazolar qo'llanilishi qayd etilgan.**

Majburiy jamoat ishlari quyidagi qaysi toifadagi shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi? (Jinoyat kodeksining 45¹-moddasi, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)

- 1) o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga;
- 2) III guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
- 3) chet el fuqarolariga;
- 4) IV guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga.

A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

15. Quyida berilganlardan qaysilari **boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar** turkumiga kiradi (Jinoyat kodeksi, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)?

- 1) pora olish; 2) terrorizm; 3) yollanish;
 4) harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash; 5) davlat sirlarini oshkor qilish;
 6) davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish.
 A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 4, 6

16. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

I. Shaxsiy huquq va erkinliklar; II. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar;

- a) har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega;
- b) siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas;
- c) har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi;
- d) hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas;
- e) fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega;
- f) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.
- A) I-b, d; II-c, e B) I-a, d; II-c, f
 C) I-a, e; II-c, f D) I-a, f; II-c, d

17. Jinoyat Kodeksining 35-moddasiga ko'ra quyidagilardan **qaysilari qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar hisoblanadi?** (01.06.2024-yil holatiga ko'ra)

- 1) kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik;
 2) boshqa shaxsdan foydalanib jinoyat qilish;
 3) jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida qilmish sodir etish;
 4) chin ko'ngildan pushaymon bo'lish.
 A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 1, 4

18. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

(Mehnat kodeksining 204, 206, 217, 227-moddalari, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)

- 1) ish kuni (smena) davomida xodimga dam olish va ovqatlanish uchun davomiyligi ko'pi bilan ikki soat va kamida o'ttiz daqiqa bo'lgan, ish vaqtiga kiritilmaydigan tanaffus berilishi kerak;
- 2) birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi xodimga u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan uch oy o'tganidan keyin yuzaga keladi;
- 3) ishning tugashi va uning keyingi kuni (smenada) boshlanishi o'rtasidagi har kungi (smenalar oralig'idagi) dam olish davomiyligi, shu jumladan dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus o'n ikki soatdan kam bo'lishi mumkin emas;
- 4) har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi o'n besh kalendar kunni tashkil etadi.
- A) 2, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 1, 3

19. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

... – mantiqiy tizimlashtirish xususiyatiga ega qonun bo'lib, o'zida ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini batafsil tartibga soluvchi normalarni birlashtiradi.

- A) Qaror B) Farmon C) Kodeks
 D) Konstitutsiya

20. Qaysi javobda **parlamentar Respublika** belgilaridan biri to'g'ri berilgan?

- A) Prezident ijro hokimiyatining bevosita boshqaruvchisi hisoblanadi
- B) Davlatni bevosita xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega bo'lgan Prezident boshqaradi
- C) Prezident o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.
- D) Prezident saylanuvchi mansabdor shaxs bo'lib, asosan parlament tomonidan saylanadi

21. Quyida berilgan ma'lumotlarga mos **yakuniy xulosalar (to'g'ri/noto'g'ri)** keltirilgan javobni aniqlang.

I. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ichida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'pi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi;

II. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismi ishtirok etishi shart;

III. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'zini o'zi tarqatib yuborish to'g'risida senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi mumkin;

IV. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi;

V. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

- A) I-noto'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri; IV-noto'g'ri; V-noto'g'ri
- B) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri; IV-to'g'ri; V-noto'g'ri
- C) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri; IV-to'g'ri; V-to'g'ri
- D) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri; IV-to'g'ri; V-to'g'ri

22. Quyidagilardan qaysilari **Davlat moliyaviy nazorat organlari hisoblandi** (Byudjet kodeksining 171-moddasi, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)?

- 1) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
 - 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
 - 3) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;
 - 4) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
- A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 2, 3

23. **To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.**

I. Unitar davlat; II. Federativ davlat;
a) Norvegiya; b) Shvetsiya; c) Meksika;
d) Belgiya.

- A) I-c, d; II-a, b B) I-b, c; II-a, d
- C) I-a, b; II-c, d D) I-a, c; II-b, d

24. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **Senati a'zolari** Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur **deputatlar saylanganidan so'ng necha oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar** (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 128-moddasi)?

- A) bir oy B) ikki oy C) to'rt oy
- D) uch oy

- 25. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.**
("O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunning 8, 25, 34-moddalari, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risidagi Nizomning 15-bandi. 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)
- 1) agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olayotgan bo'lsa, boshqasi esa O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi bo'lib qolaversa, o'n to'rt yoshga to'lmagan, O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan va doimiy yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini oladi;
 - 2) ota-onasining fuqaroligi o'zgarganda yoki bola farzandlikka olingan taqdirda o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolaning fuqaroligi faqat uning yozma roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin;
 - 3) 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar ota-onalar, vasiylar (homiylar) ning voyaga yetmagan shaxsning mustaqil ravishda xorijga chiqishiga notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda ham xorijga kuzatuvchisiz chiqishi mumkin emas;
 - 4) agar shaxs chet davlatning fuqaroligini tug'ilganlik bo'yicha yoxud chet davlat fuqarosi bo'lgan otasining yoki onasining fuqaroligi asosida, voyaga yetmagan yoshida olgan bo'lsa va yigirma bir yoshga to'lguniga qadar chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirmagan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotadi;
 - 5) O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohdan o'tishi, shuningdek bunday nikohning bekor qilinishi er-xotinning fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'ladi;
 - 6) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet davlat fuqaroligiga mansubligi O'zbekiston Respublikasida tan olinadi.
- A) 1, 3, 6 B) 2, 4, 5 C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 4

- 26. O'zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat madhiyasiga hurmatsizlik qilish bazaviy hisoblash miqdorining necha baravarigacha jarima solinishi (a) yoki necha yilgacha axloq tuzatish ishlari (b) bilan jazolanadi** (Jinoyat kodeksining 215-moddasi, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)?
- 1) yigirma besh baravarigacha; 2) ellik baravarigacha; 3) uch yilgacha; 4) besh yilgacha.
- A) a-2, b-4 B) a-1, b-3 C) a-1, b-4
D) a-2, b-3
- 27. Fuqarolar huquq layoqatining mazmuni NOTO'G'RI** berilgan javobni aniqlang. (Fuqarolik kodeksining 18-moddasi, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)
- 1) fuqarolar bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari mumkin emas; 2) fuqarolar mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari mumkin; 3) fuqarolar fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari mumkin; 4) fuqarolar yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishlari mumkin emas.
- A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 4

28. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

(Fuqarolik kodeksining 405, 407, 409, 410-moddalari, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra)

- 1) sotuvchi yaroqlilik muddati belgilangan tovarni sotib oluvchiga shunday mo'ljal bilan topshirishi kerakki, toki undan yaroqlilik muddati tugagunga qadar o'z vazifasi bo'yicha foydalanish mumkin bo'lsin;
- 2) agar sotib oluvchi tovardagi kamchiliklar tovar sotib oluvchiga topshirilgunga qadar paydo bo'lganligini yoki shu paytgacha vujudga kelgan sabablar tufayli paydo bo'lganligini isbot qilib bersa, sotuvchi tovarning kamchiliklari uchun javobgar bo'ladi;
- 3) agar tovarga kafolat muddati belgilangan bo'lsa, tovarning kamchiliklari kafolat muddatida aniqlanganida sotib oluvchi tovarning kamchiliklari bilan bog'liq talablarni qo'yishga haqli emas;
- 4) standartlarda tovarlarning sifatini nazorat qilishga nisbatan talablar belgilangan hollarda, sifat ulardagi ko'rsatmalarga muvofiq tekshirilishi shart emas.

A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 2, 4

29. To'g'ri berilgan ma'lumotni aniqlang

(Oila Kodeksining 68, 70, 90-moddalari, 01.06.2024-yil holatiga ko'ra).

- A) ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega
- B) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga haqli emas
- C) oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir
- D) ota-ona voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega

30. Quyidagi izohlarga mos atamalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- 1) xalqaro shartnomaning davlat hokimiyati oliy organi tomonidan tasdiqlanishi;
- 2) muayyan shaxsga bitim tuzish xususida qilingan rasmiy taklif, bunda uni tuzish uchun zarur bo'lgan barcha shartlar ko'rsatiladi;
- 3) shartnoma amali muddatini u tuzilayotganida nazarda tutilganidan uzaytirish.

- A) ratifikatsiya, legitimlik, prolongatsiya
- B) denonsatsiya, legitimlik, promulgatsiya
- C) denonsatsiya, oferta, promulgatsiya
- D) ratifikatsiya, oferta, prolongatsiya